



BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SUNF O'QITUVCHILARNI TAYYORLASHDA INTEGRATIV O'QITISHNING AHAMIYATI

Jo'rayeva Nargiza Jamolidinovna

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang'ich ta'lim yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar kasbiy tayyorgarligining hozirgi holati tahlili natijasida ularning integrativ bilimlarni egallash darajasi hali ham pedagogik ta'limning zamonaviy tamoyillariga to'liq mos kelmasligi, boshlang'ich ta'lim tizimida sodir bo'layotgan o'zgarishlar va istiqbolli yo'nalishlar talabalarning tayyorgarlik mazmunida yetarlicha aks etmayotganligi haqida, hamda bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlash chuqur, izchil va istiqbolli bo'lishi, bilimlarni egallash usullarining integratsiyasini ta'minlanishi haqida tahliliy yondashuvlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: integrativ o'qitish, fanlararo uzviylik va izchillik, tafakkur amallari, loyihalashtirish.

Аннотация. В данной статье в результате анализа текущего состояния профессиональной подготовки студентов, обучающихся по направлению начального образования, указывается на то, что уровень усвоения ими интегративных знаний всё ещё не полностью соответствует современным принципам педагогического образования, что происходящие изменения и перспективные направления в системе начального образования недостаточно отражаются в содержании подготовки студентов, а также представлены аналитические подходы к необходимости обеспечения глубокой, последовательной и перспективной подготовки будущих учителей начальных классов, интеграции способов усвоения знаний.

Ключевые слова: интегративное обучение, межпредметная целостность и последовательность, операции мышления, проектирование.

Annotation. In this article, based on the analysis of the current state of professional training of students studying in the field of primary education, it is indicated that their level of mastering integrative knowledge still does not fully correspond to the modern principles of pedagogical education, that the changes taking place and the prospective directions in the system of primary education are not sufficiently reflected in the content of students' training, and analytical approaches are presented regarding the necessity of ensuring deep, consistent, and future-oriented preparation of future primary school teachers, as well as the integration of methods of knowledge acquisition.

Keywords: integrative teaching, interdisciplinary integrity and consistency, thinking operations, designing.

Dunyoda ta'lim sivilizatsiyasi va insoniyatning yaxlit barqaror taraqqiyoti negizida bilim olishdan faoliyatli-kompetentli ta'lim paradigmasiga o'tish jamiyat rivojlanishining zamonaviy tendensiyalariga mos, raqobatbardosh kadrlarga bo'lgan

talabning tobora oshib borishiga olib keldi. Globallashuv kontekstida oliy ta‘lim sifati mamlakatning barqaror raqobatbardoshligini ta‘minlab beradi va «boshlang‘ich ta‘lim jarayonini baholash va integratsion-innovatsion vositalarini takomillashtirish, yuksak natijalarga erishish imkonini beruvchi ta‘lim mazmunini amaliyotga joriy etish», bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining metodik tayyorgarligini takomillashtirish maqsadida «boshlang‘ich ta‘lim yo‘nalishlarida samarali o‘quv jarayonini tashkil etish» muammosi alohida dolzarblik kasb etdi [1].

Bugungi kunda faqat tayyor bilimlarni yetkazuvchi pedagog emas, balki o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, bilimlarni umumlashtirish va ularni amaliyotga qo‘llash malakasini shakllantira oladigan, shu bilan birga boshlang‘ich sinf o‘quvchisining ijodiy salohiyatini ochib bera oladigan zamonaviy o‘qituvchi shaxsiga ehtiyoj sezilmoqda. Aynan shunday pedagoglar zamonaviy ta‘lim tizimi talablariga javob bera oladi. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisini kasbiy tayyorlashni takomillashtirish masalasi alohida dolzarb ahamiyat kasb etadi. Chunki aynan boshlang‘ich sinf o‘qituvchisidan maktab o‘quvchilarini o‘qitish va tarbiyalashning maqsadli jarayoni boshlanadi.

N.V. Amosovning ta‘kidlashicha, so‘nggi yillarda oliy va o‘rta maxsus pedagogik o‘quv yurtlari «ko‘ppredmetlilik» deb ataluvchi muammo oldida turibdi [2]. Ko‘ppredmetlilik bilan bir qatorda o‘qituvchini tayyorlashda «elementlarga bo‘lingan» tendensiya ham rivojlandi. Tayyorgarlik jarayoni esa, nazariy bilim va amaliy ko‘nikmalarni o‘z ichiga olgan alohida elementlar va bo‘laklarga ajralgan tarzda amalga oshirilmoqda. Muallifning fikriga ko‘ra, bunday tayyorgarlik talabning shaxsiy ijodiy salohiyatini amaliyotda to‘liq namoyon etishga imkon bermaydi, chunki «turli fanlardan o‘zlashtirilgan bilimlar odatda yagona ilmiy manzara shaklida birlashtirilmaydi, balki ular talabalarga alohida, o‘zaro bog‘lanmagan elementlar sifatida taqdim etiladi»[2].

G.Boymurodova bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini metodik tayyorlashning mavjud tizimini boshlang‘ich ta‘limda sodir bo‘layotgan innovatsion jarayonlarga mos ravishda isloh qilish, metodik tayyorgarlikni takomillashtirish texnologiyalarini ishlab chiqish lozimligini ta‘kidlaydi[3; 16 b].

Amaliyot shuni ko‘rsatmoqdaki, boshlang‘ich va o‘rta ta‘lim bosqichlari o‘rtasida fanlarni o‘qitish jarayonida uzviylik va izchillikni ta‘minlash ko‘plab o‘qituvchilar uchun jiddiy muammolardan biri bo‘lib qolmoqda. Bunga sabab, mavjud kasbiy tayyorgarlik tizimi va pedagogik faoliyat mazmuni boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining o‘rta maktab bosqichidagi fanlar mazmuni va ularni o‘qitish metodikasidan yetarlicha xabardor bo‘lmashligidir. Natijada, o‘quvchilarning bilim olish jarayoni izchil bo‘lmay, keyingi bosqichga o‘tishda qiyinchiliklarga duch kelinadi. Bu holatni bartaraf etish uchun o‘quv jarayonini chuqur tahlil qilish, o‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarini rivojlantirish darajasini baholash hamda keyingi bosqich talablari bilan uyg‘unlashtirish muhim hisoblanadi. Bunday yondashuvni amalga oshirish esa o‘z kasbiga chuqur bilimli, yuqori metodik tayyorgarlikka ega, zamonaviy pedagogik texnologiyalar, innovatsion metodlar va individual yondashuvlarni puxta o‘zlashtirgan o‘qituvchini tayyorlashni talab qiladi. Shunday ekan, bo‘lajak pedagoglarning kasbiy tayyorgarligini tashkil etishda

uzluksizlik, fanlararo bog‘liqlik va amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirishga alohida e‘tibor qaratish zarur.

Nazariy tayyorgarlik qanchalik chuqurlashtirilmasin, unga ajratilgan o‘quv vaqti va fanlar soni qanchalik ko‘paytirilmasin, u kelajakdagi pedagogik faoliyatning ilmiy asosi bo‘lib shakllanmaydi. N.V. Amosovning ta‘kidlashicha, bunga, eng avvalo, «elementlarga bo‘lingan fikrlash» to‘sqinlik qiladi. Bu fikrlash turi fikr erkinligiga, ijodiy izlanishlarga, erkin improvizatsiyaga va shaxsning o‘z salohiyatini amaliyotda namoyon etishiga to‘sqinlik qiladi. Yuqorida sanab o‘tilgan choralar o‘qituvchini tayyorlashning ekstensiv tizimiga taalluqlidir. Bunda barcha takomillashtirish urinishlari faqat miqdoriy ko‘rsatkichlarni o‘zgartirish sifatida qaraladi. An‘anaviy tizimni o‘zgartirmasdan o‘qituvchi tayyorgarligini tubdan o‘zgartirish imkonsiz.

An‘anaviy o‘qitish metodikasiga kiritilgan talaba dars mashg‘ulotlarida, asosan, tinglaydi, kuzatadi, yodlaydi, takrorlaydi va qayta bayon qiladi, lekin kamroq fikr yuritadi. Amaliyotda unga muammo qo‘yish, gipoteza ilgari surish va uni hal qilish, muammoning optimal yechimini izlash, fikr yuritish, taqqoslash, bog‘lanishlar va munosabatlarni aniqlash imkoniyati deyarli berilmaydi. Shu sababli, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari bilan ishlashda ham u faol o‘qitish usullari va shakllaridan foydalanish bo‘yicha namuna ololmaydi. Metodik tayyorgarlik amaliyotida, asosan, allaqachon ishlab chiqilgan mazmun asosida tahlil qilish, baholash, tuzilma yaratish kabi harakatlarni bajarishga yo‘naltirilganlik ko‘zga tashlanadi. Talabalarga mustaqil ravishda o‘quv jarayonini loyihalash yoki o‘quv vaziyatlariga mos komponentlarni yaratish kamroq nasib etadi. Bundan tashqari, ko‘proq e‘tibor mazmun ustida ishlashga qaratiladi. Bitiruvchilarning keyingi pedagogik faoliyati bo‘yicha olib borilgan kuzatish natijalari shuni ko‘rsatadiki, ular boshlang‘ich maktabdagi pedagogik muhit talablariga har doim ham mos kelmaydi[2].

Boshlang‘ich ta‘lim yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalar kasbiy tayyorgarligining hozirgi holati tahlili shuni ko‘rsatadiki, ularning integrativ bilimlarni egallash darajasi hali ham pedagogik ta‘limning zamonaviy tamoyillariga to‘liq mos kelmaydi. Shu bilan birga, boshlang‘ich ta‘lim tizimida sodir bo‘layotgan o‘zgarishlar va istiqbolli yo‘nalishlar talabalarning tayyorgarlik mazmunida yetarlicha aks etmayapti. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini tayyorlash jarayoni murakkab va dinamik tizim sifatida qaralishi lozim. Bunday tizim, avvalo, har bir talabani uning individual imkoniyatlari, hayotiy tajribasi va kasbiy salohiyatidan kelib chiqib rivojlantirishga yo‘naltirilgan bo‘lishi zarur. Tayyorgarlik jarayoni esa chuqur, izchil va istiqbolli bo‘lishi, bilimlarni egallash usullarining integratsiyasini ta‘minlashi, tafakkurning turli shakllari (evristik, algoritmik, abstrakt, fazoviy, ijodiy va boshqalar) va ularning sifatlarini shakllantirishni o‘z ichiga olishi kerak. Shuningdek, o‘zlashtirilgan bilimlarni mustaqil tarzda chuqurlashtirish va kengaytirish imkonini beruvchi kompetensiyalarni rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. O‘qituvchilik tayyorgarligi natijalari nafaqat bilim, ko‘nikma va malakalar bilan cheklanmasligi, balki talabalar intellektual faoliyat xususiyatlari– tafakkur amallari, fikrlash usullari va bilish faoliyati metodlaridan samarali foydalanish qobiliyatlari orqali ham namoyon bo‘lishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Саидова М Ж. Масофавий таълим шароитида бўлажак бошланғич синф ўқитувчиларининг методик тайёргарлигини такомиллаштириш. Педагогика фанлари доктори (Doctor of Science) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. Тошкент– 2022 260 б.
2. Амосова, П.В. Методико-математическая подготовка студентов педагогических факультетов к развитию творческой личности школьника при обучении математике. Астрахань, 1999.- 420 с.
3. Боймуродова Г. Т. Бошланғич синф ўқитувчилари касбий-шахсий тайёргарлигининг технолоик тизими. Дисс... автореферат и Қарақалпоғистон. 2017.– 16 б.